

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019.QX.75.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

TURANOV MIRJALOL HUSAN O‘G‘LI

**OLMOS VA KUMUSHSIMON RANGBARANGLIKLARIDAGI SUR
RANGLI QORAKO‘L QO‘YLARI MAHSULDORLIGINI SELEKSION-
GENETIK JIHATDAN QIYOSIY BAHOLASH**

**06.02.01 - Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini urchitish, ko‘paytirish, seleksiyasi va genetikasi.
Qorako‘lchilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавние автореферата диссертация доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contens of dissertation abstract of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Turanov Mirjalol Husan o‘g‘li

Olmos va kumushsimon rangbarangliklaridagi sur rangli qorako‘l qo‘ylari
mahsuldorligini seleksion-genetik jihatdan qiyosiy baholash 3

Туранов Миржалол Хусан угли

Сравнительная селекционно-генетическая оценка продуктивности
каракульских овец сур алмазной и серебристой расцветок..... 19

Turanov Mirjalol Husan o‘g‘li

Comparative and breeding genetic assessment of the productivity of the Karakul
sheep of Sur color of diamond and silver colorations..... 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published work..... 39

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019.QX.75.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

TURANOV MIRJALOL HUSAN O‘G‘LI

**OLMOS VA KUMUSHSIMON RANGBARANGLIKLARIDAGI SUR
RANGLI QORAKO‘L QO‘YLARI MAHSULDORLIGINI SELEKSION-
GENETIK JIHATDAN QIYOSIY BAHOLASH**

**06.02.01 - Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini urchitish, ko‘paytirish, seleksiyasi va genetikasi.
Qorako‘lchilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Qx724 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi www.uzkarakul.uz va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gaziev Adham

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Soatov O'tkir Rajabovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent

Tursunov Xayrullo Sharofiddinovich

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01. raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140154, Samarqand, M.Ulug'bek ko'chasi, 47 uy. Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, majlislar zali 2-qavat, tel.: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81; e-mail: uzkarakul30@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (221-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140154, Samarqand, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 47 uy, institut ma'muriy binosi, 1-qavat Tel.: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

E.S.Shaptakov

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi,
q-x.f.d., dotsent

Z.S.Klichev

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
q-x.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

D.Xolmirzaev

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, q-x.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Chorvachilikning muhim bo‘g‘ini hisoblangan qorako‘lchilik tarmog‘i aholiga nafaqat go‘sht mahsulotini yetkazib berish, balki yengil sanoat uchun jun hamda qimmatli qorako‘l terilari yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda dunyoning Osiyo, Afrika, Yevropa, Amerika qit‘alarida joylashgan 40 dan ortiq mamlakatlarida qorako‘l qo‘y zoti urchitiladi¹. Bular qatorida Namibiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Afg‘oniston, Qozog‘iston, Turkmaniston qorako‘l qo‘y zoti urchitiluvchi eng yirik mamlakatlar hisoblanib, bu mamlakatlarda qorako‘l qo‘y zotining gul tiplari, rangi bo‘yicha qimmatli genotiplaridan foydalanish dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

MDH mamlakatlari orasida qorako‘l qo‘y zotini urchitish bilan Rossiya, Ukraina, Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston shug‘ullanib kelmoqda. Ushbu davlatlarda qorako‘l qo‘ylarining o‘ziga xos rang va rangbarangliklari, mahsuldor tiplarini ko‘paytirish ustida seleksiya ishlari olib borilib, qorako‘l qo‘ylarining qimmatli yirik suruvlari yaratilgan. Shu bilan birgalikda qorako‘l qo‘yining qimmatli genofondidan samarali foydalanish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan Ukrainaning “Askaniya - nova” chorvachilik institutida qorako‘l va romanov zotli qo‘ylarni o‘zaro chatishtirish asosida 100 bosh qo‘yga 140-150 bosh qo‘zi beruvchi serpushtligi oshirilgan qorako‘l qo‘ylarining qimmatli genotipi yaratilgan.

O‘zbekiston qorako‘l qo‘y zotining vatani hisoblanib, dunyoning qorako‘l qo‘ylari urchitiladigan boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq bu yerda turli rang, rangbarangliklar va gul tiplaridagi qorako‘l qo‘ylari urchitiladi. Hozirgi vaqtda qorako‘l qo‘ylarini urchitish cho‘l mintaqalari resurslaridan samarali foydalanishning yagona, iqtisodiy jihatdan asoslangan va maqsadga muvofiq yo‘li sifatida qaralmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida», «...Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish, chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish va mahsuldorligini oshirish bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirish»² kabi muhim vazifalar belgilangan. Qorako‘lchilikni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masala bo‘lib, sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishning yaqin yillarga mo‘ljallangan ustivor yo‘nalishlarini aniqlash uning taraqqiyotini belgilaydigan asosiy mezon hisoblanadi. Bu borada qo‘ylarni tanlashning samarali yo‘llarini aniqlash, progressiv juftlash turlarini qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qorako‘lchilikda mahsuldorlikni seleksion-genetik jihatdan baholash katta ahamiyat kasb etib, dolzarb muammo hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi PQ-3603-son “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 16-avgustdagi PQ-4420-son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini

¹ <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1255>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida to‘g‘risida” gi, PF-60-sonli Farmoni

yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora–tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari, 2020-yil 2-sentyabrdagi PF-6059-son “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora–tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof–muhit muhofazasi” mavzusidagi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sur qorako‘l qo‘ylari seleksiyasida turli rangbaranglikdagi qo‘ylarning irsiy salohiyatini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlarning olib borgan tadqiqotlarida (A.Gaziyev, S.Yu.Yusupov, U.T.Fazilov, B.S.Mamatov, A.J.Boltayev, Z.S.Qlichev) qorako‘l qo‘zilarining muhim gul ko‘rsatkichlari, jun – tola sifati, rang va rangbarangliklari orasida statistik jihatdan ishonchli bo‘lgan korrelyativ bog‘lanishlar mavjudligi, seleksiya ishlarini ma’lum bir belgiga yo‘naltirish orqali boshqa belgilarning yaxshilanishini kuzatish mumkinligi aniqlangan.

B.X.Djambilov, F.E.Sherqulova, Z.A.Qarshiyevlar olmos rangbarangligidagi qo‘ylar bosh sonini ko‘paytirish uchun olmos rangbarangligidagi qo‘chqorlar bilan rangbarangligi bo‘yicha gomogen juftlash, kumush va tillo rangbarangliklaridagi sovliqlar bilan geterogen juftlash usulini qo‘llash lozim deb ko‘rsatadi. D.M.Parmanova (2021) tadqiqotlarida yarim doira qalam gul tipi bo‘yicha gomogen juftlash natijasida gul tipi va sinfi bo‘yicha yuqori mahsuldor bo‘lgan elita (22,8%) va birinchi sinfga (57,1%) mansub naslli qo‘chqorlarning olinishi naslli qo‘zilar sifatini oshiradi. Gul tipi va sinfi bo‘yicha geterogen juftlash usulidan foydalanish seleksiya ishlarining keyingi bosqichlarida, aksincha, avlodlar sifatining biroz pasayishiga olib kelishi kuzatilgan.

Sur rangli qorako‘l qo‘ylarida muhim seleksion belgilarning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish yo‘nalishida S.Yu.Yusupov, A.Gaziyev, S.R.Bozorov, A.Ibragimov, A.Axmetshiyev, A.Ombayev va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari bajarilgan.

Sur qorako‘l qo‘ylarining olmos rangbarangligi bo‘yicha O.Ibragimov, M.Jalmenov, A.Boltayev, B.Djambilov va boshqalar tomonidan bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Respublikamizda olmos va kumushsimon rangbarangligini seleksion–genetik jihatdan o‘zaro solishtirish asosida ilmiy–tadqiqot ishlari deyarli bajarilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy – tadqiqot muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy–tadqiqot institutining QX-A-QX-2018-60 “Fermer xo‘jaliklari sharoitida naslchilik ishlarini yuritishni jadallashtirish va soddallashtirishni ta’minlovchi qorako‘l qo‘ylari mahsuldorlik salohiyatini boshqarishning seleksion–genetik usulini ishlab chiqish” (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha va “Qizilqum sharoitida qorako‘l qo‘ylarini samarali urchitish asosida qorako‘l mahsuloti sifatini yaxshilash va ularning

mahsuldor suruvlarini yaratish” (2021-2023 yy.) tematik mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatimizning Nurota cho‘li hududida olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi sur rangli qorako‘l qo‘ylarining irsiy, o‘shish va rivojlanish hamda mahsuldorlik xususiyatlarini seleksion–genetik jihatdan qiyosiy baholash asosida ularning o‘xshashlik va farqlanish tomonlarini aniqlash, samarali urchitish usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

olmos va kumush rangbaranglikdagi qo‘ylarni turli variantlarda juftlash samaradorligini aniqlash;

olmos va kumush rangbaranglikdagi sur rangli qo‘ylarda belgilarning bog‘liqligi va irsiylanishini o‘rganish;

belgilarning irsiylanishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash;

olmos va kumush rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining irsiy xususiyatlarini hamda o‘shish va rivojlanishini o‘rganish;

tadqiqotning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi qorako‘l qo‘ylari va qo‘zilari tanlandi.

Tadqiqotning predmeti turli rangbaranglikdagi olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi qorako‘l qo‘ylari, qo‘zilarining, rangbaranglik, gul, jun–tola sifati va ularning irsiylanish hamda avlodlariga o‘tishi xususiyatlarini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda turli rangbaranglikdagi qo‘ylar, ulardan olingan avlodlarni baholashda S.Yu.Yusupov va boshqlarning “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma” (2015), qo‘zilarning tana indeksleri umumqabul qilingan usullarda N.A.Kravchenko (1963), jun–tolasining uzunligi va boshqa muhim belgilarni o‘lchash va ularning biometrik hamda statistik tahlili G.F.Lakinning “Biometriya” (1968), N.A.Ploxinskiyning “Руководство по биометрии для зоотехников” (1969), “Nasleduyemost” (1964) qo‘llanmalari asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor olmos va kumushsimon rangbarangliklaridagi qo‘ylarni turli variantlarda juftlashda ularning irsiy imkoniyatlaridan foydalanishning samarali yo‘llari aniqlangan;

olmos va kumushsimon rangbarangliklaridagi sur qorako‘l qo‘ylari va ularning avlodlarida o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganilib, qo‘ylar tirik vazni orasida 1,1 va 0,9 kg, olingan avlodlarning tirik vazni bo‘yicha 0,1-0,2 kg; 4-4,5 oylik yoshda 1,7-1,85 kg farqlanishlar aniqlangan;

olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi avlodlarni seleksion belgilari bo‘yicha qiyosiy baholash ishlari amalga oshirilib, rangning a’lo ifodalanishi bo‘yicha 11,8-3,5%, tekisligi bo‘yicha 0,9-9,1%, kontrastlik darajalari bo‘yicha 13,9-12,6%, farqlanishlar aniqlangan;

olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi qo‘ylar genotipi qiyosiy baholanib, baholash natijasida rangbaranglik miqyosida gullarning o‘rta eni

bo'yicha 1,6-2,2% mustahkamligi bo'yicha 10,9-5,0% darajalaridagi kattaliklarga ega bo'lishi kuzatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Olib borilgan tadqiqotlarda olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi qo'ylarning irsiy xususiyatlari, o'sishi, rivojlanishini, ularning shaklanishiga irsiy va paratipik omillarning ta'sirini o'rganish va qiyosiy baholash asosida ularda muhim belgilarning namoyon bo'lish darajalari, o'sish va rivojlanish dinamikasi bo'yicha o'xshashlik va farqlanish darajalari aniqlanib, ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotlarida zamonaviy usullardan foydalanilganligi, uning natijalari va bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida olingan birlamchi ma'lumotlarning Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Innovatsion rivojlanish vazirligining aprobatsiya komissiyalari hamda Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kengashi tomonidan ijobiy baholanganligi, olingan raqamli ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berilganligi hamda xo'jaliklarda joriy qilinishining dalolatnomalar asosida xujjatlashtirilganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, O'zbekistonning cho'l hududida ilk bor olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi sur qorako'l qo'ylarining irsiy xususiyatlari, o'sishi va rivojlanishi hamda mahsuldorlik xususiyatlari seleksion-genetik jihatdan qiyosiy baholanib, ushbu xususiyatlar bo'yicha ilmiy jihatdan yangi ma'lumotlar olingan va tahlillangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakatimizning cho'l sharoitida turli rangbaranglikdagi olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'ylarining irsiy xususiyatlari, o'sish va rivojlanishi hamda mahsuldorlik xususiyatlari o'zaro qiyoslanib seleksion-genetik jihatdan baholanganligi hamda hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida bu jarayonning ahamiyati ochib berilganligi mahsulot sifatini yaxshilash yo'llarining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi sur rangli qorako'l qo'ylari mahsuldorligini seleksion – genetik jihatdan qiyosiy baholash yo'nalishida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

turli rangbarangliklardagi sur qorako'l qo'ylarining mahsuldorlik xususiyatlarini bashoratlash usuli Navoiy viloyati "Eltoy kumush suri" naslchilik MChJda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 1-fevraldagi 1-2/68 son ma'lumotnomasi). Natijada populyatsiyaga nisbatan qo'ylarning tirik vaznini 4-5 kilogrammga, go'sht mahsuldorligi 2-2,5 kilogrammga oshirilgan va 1 bosh qo'ydan 100-125 ming sof foyda olishga va 48,7 foiz rentabellikka erishilgan;

olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi sur qorako'l qo'ylarini samarali variantlarda juftlash usuli Navoiy viloyatining "Nurota qorako'l naslchilik" MChJda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 1-fevraldagi 1-2/68 son ma'lumotnomasi). Natijada qayd etilgan rangbarangliklar bo'yicha 1 dona qorako'l teri hisobiga

mutanosib ravishda 15600,0 va 13200,0 so‘m sof foyda olingan, rentabellik ko‘rsatkichi 40,3 va 38,4 foizni tashkil etgan;

turli rangbarangliklardagi sur qorako‘l qo‘ylarining mahsuldorlik xususiyatlarini bashoratlash usuli Navoiy viloyati “Kalmuratkazgan chorvadorlar makoni” naslchilik MChJda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 1-fevraldagi 1-2/68 son ma‘lumotnomasi). Joriy etish asosida populyatsiyaga nisbatan qo‘ylarning tirik vazni 3-4 kilogrammga, go‘sh mahsuldorligi 1,5-2 kilogrammga oshirilgan va 1 bosh qo‘ydan 75-100 ming sof foyda olishga va 41,3 foiz rentabellikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari Nurota tumani “Nurota qorako‘l naslchilik” MChJning ishlab chiqarish yig‘ilishlarida (2019-2021 yy.), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va Innovatsion rivojlanish vazirligining aprobatsiyalarida (2020, 2021 yy.), Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy–tadqiqot institutining ilmiy kengash yig‘ilishlarida (2020-2022 yy.), xalqaro hamda respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to‘plamlarida 4 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda maqolalar chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xususiy tadqiqot natijalari, xulosalar, amaliyotga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari hamda ob‘ekt va predmeti, O‘zbekiston respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga, ilmiy muassasaning tematik rejasiga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarni amaliyotga joriy etish, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar sharxi**” nomli birinchi bobida turli rang va rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining irsiy va mahsuldorlik xususiyatlari, seleksion belgilarning namoyon bo‘lish darajalarini o‘rganish yo‘nalishida olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari va ulardan foydalanishda erishilishi mumkin bo‘lgan holatlar tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida dissertatsiya mavzusi yo‘nalishida olib boriladigan tadqiqotlarning maqsad va vazifalari aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot manzili, manbai va usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot manzili va manbai, tadqiqot sxemasi va usullari yoritilgan.

Tadqiqotlar 2020-2022 yillarda Navoiy viloyati Nurota tumani “Nurota qorako‘l naslchilik” MCHJda urchitiluvchi olmos va kumushsimon rangbarangliklaridagi sur qorako‘l qo‘ylarida olib borilgan. Tadqiqotlarda qayd etilgan qo‘ylarning tajriba guruhlari shakllantirilgan, ulardan olingan avlodlarda o‘shish va rivojlanish, muhim seleksion belgilarning namoyon bo‘lish, ularni genetik jihatdan qiyosiy baholash natijalari, olingan eksperimental ma‘lumotlarga variatsion statistika usullarida matematik ishlov berish uslublari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi sur qorako‘l qo‘ylarining o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari dinamikasi**” deb nomlangan uchinchi bobida turli rangbaranglikdagi har xil gul tipli qo‘zilarining tirik vazn, eksterer o‘lchamlari va tana tuzilishi indekslarini dinamikada o‘rganish natijalari yoritilgan.

Tirik vazn va eksterer o‘lchamlari. Ma‘lumki, qishloq xo‘jalik hayvonlarining tana tuzilishi, tirik vaznining o‘zgarishi, o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq xususiyatlar hisoblanadi. Qishloq xo‘jalik hayvonlarida o‘shish va rivojlanish ma‘lum qonuniyat asosida amalga oshadi.

Ta‘kidlash lozimki, turli genotiplarga mansub organizmlar tirik vazn, o‘shish va rivojlanish va boshqa xususiyatlari bilan bir–biridan farq qiladi. Bunday holatni o‘rganish ularning imkoniyatlarini aniq baholashga zamin yaratadi.

Tadqiqotlar davomida turli rangbarangliklardagi jami sur qorako‘l qo‘zilarining tirik vazn dinamikasini o‘rganish natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli rangbaranglik va gul tiplaridagi sur qorako‘l qo‘zilarining tirik vazn dinamikasi

Rangbarangliklar	n	Tirik vazn, kg			
		Tug‘ilganda		4,5 oylikda	
		X±Sx	Cv	X±Sx	Cv
Olmos					
Yarim doira	30	4,0±0,07	10,05	24,3±0,62	14,3
Qovurg‘asimon	30	3,9±0,07	10,7	25,8±0,45	9,77
Yassi	30	3,9±0,09	12,9	24,59±0,70	15,6
O‘sik gul	30	4,2±0,08	11,7	26,15±0,58	12,2
Kumushsimon					
Yarim doira	30	3,8±0,05	7,4	25,0±0,43	9,36
Qovurg‘asimon	30	4,0±0,05	7,4	25,8±0,45	9,77
Yassi	30	3,9±0,11	16,0	25,7±0,41	8,71
O‘sik gul	30	4,4±0,09	14,0	26,7±0,61	12,6

Olingan ma‘lumotlardan turli rangbaranglik va gul tiplaridagi sur qorako‘l qo‘zilarining tug‘ilgandagi tirik vazni bo‘yicha o‘sik gul tipidagi qo‘zilar boshqa tipdagi tengqurlariga nisbatan ma‘lum darajada yuqori bo‘lganligini, 4,5 oylik davrida kumushsimon rangbaranglikdagi qo‘zilar ko‘rsatkichlarining biroz yuqoriligini ko‘rish mumkin.

Shunga o‘xshash ma‘lumotlar eksterer ko‘rsatkichlari va tana tuzilish indeksleri bo‘yicha ham kuzatilishi dissertatsiyada keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Olmos va kumushsimon rangbarangliklarida muhim seleksion ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish natijalari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajribadagi ota-ona juftliklaridan olingan avlodlarda muhim rangbaranglik, gul va jun tola sifati ko‘rsatkichlarining namoyon bo‘lish darajalarini qiyosiy o‘rganish natijalari keltirilgan.

Rangbaranglik. Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan seleksion ko‘rsatkich hisoblanadi. Ma‘lum rangbaranglikning namoyon bo‘lish darajasini kuchaytirish suruv bilan olib boriladigan aniq seleksion tadbirlar va uning darajasiga bog‘liq. Bunday muhim va samarali tadbirlardan biri qo‘ylarni rangbaranglik bo‘yicha gomogen juftlash hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda qimmatli olmos va kumushsimon rangbarangliklaridagi qo‘chqorlarining genotipini qiyosiy baholash ishlari olib borildi. Natijalar 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Avlodlarning rangbarangliklarga taqsimlanishi

Juftlash varianti		n	Avlodlar rangbarangligi, % (X±Sx)		
♂	♀		Olmos	Kumushsimon	Tillasimon
Olmos	Olmos	68	64,7±5,79 ^{x)}	29,4±5,52	5,9±2,85
	Kumushsimon	49	46,9±7,12	44,9±7,10	8,2±3,91
	Tillasimon	38	39,5±7,92	23,7±6,89	36,8±7,82
Kumushsimon	Olmos	52	38,5±6,74	51,9±6,93	9,6±4,08
	Kumushsimon	86	24,4±4,63	66,3±5,09 ^{x)}	9,3±3,13
	Tillasimon	41	17,1±5,89	46,3±7,79	36,6±7,52

X)-P<0,001

Jadval ma‘lumotlari qimmatli olmos va kumushsimon rangbarangliklaridagi tajribaga tanlangan sur qorako‘l qo‘chqorlarining kuchli genotipga egaligini ko‘rsatadi.

Birinchi guruh juftlash variantida olmos rangbaranglikdagi qo‘ylarni gomogen juftlashda shu rangbarangliklardagi avlodlar salmog‘i 64,7±5,79 foiz darajasi bilan karakterlanib, ikkinchi juftlash variantida esa kumushsimon rangbarangligining biroz yuqoriligini ko‘rish mumkin (variantlar bo‘yicha mos ravishda 66,3±5,09; 51,9±6,93 hamda 46,3±7,79 foiz).

Rangbaranglikning ifodalanishi. Buxoro suri zot tarkibiga kiruvchi qoraqalpoq va surxondaryo suridan rangbarangliklarining ifodalanish darajasining o‘ziga xosligi bilan karakterlanuvchi qimmatli genotip hisoblanadi. Uning turli rangbarangliklari turli xil ifodalanishi bilan bir–biridan ajralib turadi.

Tadqiqotlar davomida muhim faktorlardan biri sifatida e‘tirof etiladigan rangbaranglik bo‘yicha qo‘ylarni gomogen va geterogen juftlashning rangbaranglikning ifodalanishiga ta‘sir etishini o‘rganish yo‘nalishida izlanishlar olib borildi. Ma‘lumotlar 3-jadvalda umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalari (3-jadval) rangbaranglik ifodalanishining kuchayishi seleksiya jarayonida olmos rangbaranglikdagi qo‘chqor va qo‘ylardan foydalanish sharoitida yuz berishini ko‘rsatadi. Bu holatda olmos rangbarangligidagi qo‘ylarni gomogen juftlash avlodlarda rangbaranglikning a‘lo ifodalanish darajasini

61,8±5,89 foizga, oʻrta ifodalanish darajasini 29,4±5,52 foizga yetkazish imkonini berib, yetarsiz ifodalanish darajasini sezilarli (8,8 foizgacha) tushirishi aniqlandi.

3-jadval


Avlodlarda rangbaranglikning ifodalanishi

Juftlash varianti		n	Avlodlarning rang ifodalanishi, % (X±Sx)		
♂	♀		Aʻlo	Oʻrta	Past
Olmos	Olmos	68	61,8±5,89 ^{x)}	29,4±5,52	8,8±3,44
	Kumushsimon	49	49,0±7,14	38,8±6,96	12,2±4,68
	Tillasimon	38	34,2±7,69	47,3±8,09	18,5±6,30
Kumushsimon	Olmos	52	55,8±6,88 ^x	32,7±6,50	11,5±4,42
	Kumushsimon	86	52,3±5,38	34,9±5,13	12,5±3,57
	Tillasimon	41	36,6±7,52	48,8±7,80	14,5±5,50

X-P<0,05; X)-P<0,001

Rang tekisligi. Taʻkidlash lozimki, teri sathida rang tekisligining nomutanosibliigi uning sifatini pasaytiradi, shu bilan birga bu belgining avlodga oʻtishida salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan ushbu koʻrsatkichni yuqori darajada ushlab turish seleksiya–naslchilik ishlarida doimiy eʻtiborda turadigan muammolar qatorida turadi. Ushbu yoʻnalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Turli variant juftlashda avlodlarda rang tekisligi

Tadqiqot natijalari maqsadli juftlash ishlarini olib borishning sur qoʻylarda muhim seleksion koʻrsatkich hisoblangan aʻlo rang tekisligi salohiyatining avlodlarda sezilarli darajada yuqori namoyon boʻlishini koʻrsatadi.

Ushbu holatda maqsadli juftlash variantlarini qoʻllashda bu koʻrsatkichni olmos rangbarangligidagi qoʻchqorlar avlodlarida 60,5-66,2 foiz, kumushsimon

rangbarangligidagi qo‘chqorlar avlodlarida esa 63,4-73,1 foiz darajalarigacha ko‘tarish imkoniyatlarining mavjudligi aniqlandi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan gul uzunligining gullarning tip va shakllariga bog‘liqligi aniqlangan, ya’ni qovurg‘asimon, yassi, yarim doira qalam gullar va yol gullar eng uzun gullar hisoblanib, eng kalta gullar qatoriga dona, no‘xat, parma va boshqa gullar kiradi.

Qayd etilganlardan kelib chiqqan holda qo‘ylarni rangbaranglik bo‘yicha turli variantlarda juftlashdan olingan avlodlarda gullar uzunligining namoyon bo‘lishi o‘rganilib, olingan natijalar 4-jadvalda umumlashtirildi.

4-jadval

Avlodlarda gullarning uzunligi

Juftlash varianti		n	Gul uzunligi, mm	
♂	♀		X±Sx	Cv
Olmos	Olmos	68	36,7±0,33	7,41
	Kumushsimon	49	31,7±0,35 ^{x)}	7,73
	Tillasimon	38	30,9±0,37 ^{x)}	7,38
Kumushsimon	Olmos	52	35,9±0,34	6,83
	Kumushsimon	86	30,8±0,29 ^{x)}	8,73
	Tillasimon	41	30,1±0,32 ^{x)}	6,81

X)-P<0,001

Ma‘lumotlardan ko‘rish mumkinki, gul uzunligining eng yuqori o‘rtacha ko‘rsatkichi bilan “olmos x olmos” (36,7±0,33 mm) “kumushsimon x olmos”, ya’ni olmos rangbarangligidagi ota–onalar ishtirok etgan juftlash variantlaridan olingan avlodlar harakterlanishi, ularning boshqa variantlar ko‘rsatkichlaridan statistik ishonchli (P<0,001) ustunlik qilishi aniqlandi.

Jun-tola uzunligi. Ushbu ko‘rsatkichning muhimligi shundaki, u ko‘pchilik seleksion belgilar shakllanishining asosida yotadi. Tadqiqotlarda sur qorako‘l qo‘ylarini rangbarangliklari bo‘yicha juftlashning avlodlar jun–tola uzunligi va ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha taqsimlanishi o‘rganildi. Natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Avlodlarning jun – tola uzunligi

Juftlash varianti		n	Jun - tola uzunligi, mm	
♂	♀		X±Sx	Cv
Olmos	Olmos	68	10,59±0,07	5,45
	Kumushsimon	49	10,86±0,08 ^{x)}	5,16
	Tillasimon	38	10,78±0,07 ^{x)}	4,00
Kumushsimon	Olmos	52	10,63±0,09	6,11
	Kumushsimon	86	11,07±0,08 ^{x)}	6,70
	Tillasimon	41	10,95±0,08 ^{x)}	4,68

X-P<0,05; X)-P<0,001

Jadval ma‘lumotlari ushbu ko‘rsatkichning ota–onalar rang-barangliklariga bog‘liq holda sezilarli o‘zaruvchanlikka ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Ushbu holatda jun tolalarining eng kalta o‘rtacha ko‘rsatkichi bilan “olmos x olmos” va

“kumushsimon x olmos” juftlash variantlaridan olingan avlodlarda ($10,59 \pm 0,07$ va $10,63 \pm 0,09$ millimetr), eng uzun ko‘rsatkichi esa “olmos x kumushsimon” va “kumushsimon x kumushsimon” juftlash variantlaridan olingan avlodlarda ($10,86 \pm 0,08$ va $11,07 \pm 0,08$ millimetr) kuzatildi.

Dissertatsiyaning “**Olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi qo‘ylar muhim seleksion belgilarini genetik jihatdan qiyosiy baholash**” deb nomlangan beshinchi bobida olingan avlodlarga seleksion belgilarning o‘zgaruvchanligi, korrelyatsion bog‘liqlik va irsiylanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha baho berish natijalari yoritilgan.

Rang ko‘rsatkichlarining o‘zgaruvchanligi. Yuqorida qayd etilganidek barcha qishloq xo‘jalik hayvonlarida, jumladan qorako‘l qo‘ylarida belgilarning turli faktorlar (genotipik, paratipik va boshqalar) ta‘sirida ma‘lum darajadagi o‘zgaruvchanligi kuzatiladi. Bu o‘zgaruvchanlik qayd etilgan faktorlarga bog‘liq holda keng yoki tor chegaralarda bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlar davomida irsiy faktorlar qatoriga kiruvchi qorako‘l qo‘ylarini rangbaranglik bo‘yicha turli xil juftlashdan olingan avlodlarda muhim rang ko‘rsatkichlarining o‘zgaruvchanlik xususiyatlariga baho berildi. Ma‘lumotlar 6-jadvalda umumlashtirilgan.

Jadvalda keltirilgan natijalardan juftlash variantlariga bog‘liq holda ma‘lum belgining namoyon bo‘lishi bo‘yicha turli o‘zgaruvchanlik darajalarini ko‘rish mumkin, qaysikim, ushbu holat juftlashda foydalanilgan qo‘ylar genotipining ta‘siri bilan belgilanadi.

Ushbu holatda foydalanilgan olmos va kumushsimon rangbarangliklaridagi qo‘chqorlar genotipining har xilligini, kumushsimon rangbaranglikdagi qo‘chqorlar genotipining avlodlarning rangbarangliklar bo‘yicha taqsimlanishiga ustunroq ta‘sirini kuzatish mumkin. Buni “Olmos x kumushsimon” variantida kumushsimon avlodlarning 44,9 foizni, “kumushsimon x olmos” variantida esa 51,9 foizni tashkil etishi bilan izohlash mumkin. Buni esa ko‘p yillik kumushsimon rangbarangligi ustida seleksiya ishlari olib borilganligi natijasida ular irsiyatining nisbatan yosh olmos rangbarangligiga qaraganda mustahkamlanganligining oqibati deb tushinish mumkin.

Irsiylanish. Irsiylik irsiyat ta‘sirini belgilovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanib, undan belgilarning umumiy fenotipik o‘zgaruvchanligida genotipik faktorning ta‘sir etish salmog‘ini aniqlashda foydalaniladi.

Ta‘kidlash lozimki, ushbu yo‘nalish bo‘yicha qorako‘lchilikda, ayniqsa sur qorako‘lchilikda kam tadqiqotlar bajarilgan. Bu esa qorako‘l qo‘ylari belgilarining namoyon bo‘lishida genotip ulushi to‘g‘risida deyarli taasurot yo‘qligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar davomida sur qo‘ylarni rangbaranglik bo‘yicha turli variantlarda juftlash sharoitida muhim seleksion belgilarning irsiylanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi (7-jadval). Olmos rangbarangligidagi ota-onalar genotipining rangbaranglik, rang ifodalanishi, rang tekisligi, rangning o‘tish keskinligi bo‘yicha kuchliligini ko‘rsatadi. Buni ularning yuqori irsiylik koeffitsientlaridan ko‘rish mumkin (h^2 mutanosib ravishda 0,65; 0,59; 0,51 va 0,72; $P < 0,001$; 0,05). Ushbu ko‘rsatkichlarning “kumushsimon x olmos” variantida biroz pasayib, mutanosib

ravishda 0,61 (P<0,001); 0,66 (P<0,001); 0,42 (P<0,05) va 0,65 (P<0,001) birliklarni tashkil etganini jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

6-jadval

Turli variantli juftlashda rang ko'rsatkichlarining o'zgaruvchanligi

Juftlash varianti		n	O'zgaruvchanlik, %														
O ₃	+O		Rangbaranglik bo'yicha			Rang ifodalanishi bo'yicha			Rang tekisligi bo'yicha			Rangning o'tish keskinligi bo'yicha			Pigmentlanish darajasi bo'yicha		
			Olmos	Kumushsimon	Tillasimon	A'lo	O'rta	Past	A'lo	O'rta	Notekis	Kuchli	O'rta	Sust	2/10	3/10 4/10	5/10 6/10
Olmos	Olmos	68	64,7	29,4	5,2	61,8	29,4	8,8	66,2	29,4	4,4	58,8	29,4	11,8	7,3	73,6	19,1
	Kumushsimon	49	46,9	44,9	8,2	49,0	38,8	12,2	65,3	30,6	4,1	44,9	38,8	16,3	10,2	61,2	28,6
	Tillasimon	38	39,5	23,7	36,8	34,2	47,3	18,5	60,5	34,3	5,2	39,5	39,5	21,0	23,7	52,6	23,7
Kumushsimon	Olmos	52	38,5	51,9	9,6	55,8	32,7	11,5	73,1	23,1	3,8	51,9	34,5	13,5	7,7	61,5	30,8
	Kumushsimon	86	24,4	66,3	9,3	52,3	34,9	12,5	64,0	31,4	4,6	38,3	44,3	17,4	9,3	65,1	25,6
	Tillasimon	41	17,1	46,3	36,6	36,6	48,8	14,5	63,4	31,7	4,9	34,1	41,6	24,3	26,8	56,1	17,1

7-jadval

Avlodlarda belgilarning irsiylanish (h²)

№	Belgilar	Juftlash					
		♂ olmos			♀ kumushsimon		
		olmos	kumush simon	tilla simon	olmos	kumush simon	tilla simon
1	Rangbaranglik	0,65 ^{x)}	0,54 ^{x)}	0,41 ^{x)}	0,61 ^{x)}	0,59 ^{x)}	0,44 ^{x)}
2	Rang ifodalanishi	0,59 ^{x)}	0,61 ^{x)}	0,38	0,66 ^{x)}	0,46 ^{x)}	0,43 ^{x)}
3	Rang tekisligi	0,51 ^{x)}	0,45 ^{x)}	0,53 ^{x)}	0,42 ^{x)}	0,52 ^{x)}	0,33
4	Rangning o'tish keskinligi	0,72 ^{x)}	0,62 ^{x)}	0,52 ^{x)}	0,65 ^{x)}	0,53 ^{x)}	0,43 ^{x)}
5	Gul rasmi	0,46 ^{x)}	0,39 ^{x)}	0,43 ^{x)}	0,42 ^{x)}	0,36 ^{x)}	0,49 ^{x)}
6	Gul uzunligi	0,39 ^{x)}	0,28	0,34	0,41 ^{x)}	0,40 ^{x)}	0,37 ^{x)}
7	Gul kengligi	0,42 ^{x)}	0,44 ^{x)}	0,47 ^{x)}	0,42 ^{x)}	0,49 ^{x)}	0,50 ^{x)}
8	Jun- tola uzunligi	0,43 ^{x)}	0,42 ^{x)}	0,44 ^{x)}	0,51 ^{x)}	0,44 ^{x)}	0,45 ^{x)}
9	Jun-tola sifati	0,51 ^{x)}	0,41 ^{x)}	0,36 ^{x)}	0,48 ^{x)}	0,49 ^{x)}	0,51 ^{x)}

X-P<0,05; X)-P<0,01

Umuman olganda barcha holatlarda statistik ishonchli natijalar aniqlandiki, kuzatilgan natijalar rang ko'rsatkichlari bo'yicha olmos, gul ko'rsatkichlari bo'yicha kumushsimon rangbarangliklarining ustunligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot natijalarini iqtisodiy baholash. Ta'kidlash lozimki, tadqiqotlarni bajarishda birinchi navbatda olinadigan iqtisodiy samaradorlikka e'tibor qaratiladi.

Shu nuqtai nazardan bajarilgan tadqiqotlarning, asosiy mahsulot turi hisoblangan qorako'l terilari bo'yicha, iqtisodiy samaradorligiga baho berildi. Natijalar 8-jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalar seleksiya jarayonida olmos va kumushsimon rangbarangliklardagi qo'chqorlardan foydalanish yuqori seleksion va pirovardida iqtisodiy samara beradi. Buni yuqori rentabellik darajalaridan (72,1 va 57,4 foiz) ko'rish mumkin.

Olmos rangbarangligidagi qo'chqorlardan foydalanishda iqtisodiy samaradorlikning kumushsimon rangbarangligiga nisbatan yuqori (14,7 foizga) ko'rsatkichini olmos rangbarangligidagi qo'chqorlardan olingan qorako'l terilari orasida shu rangbaranglikning deyarli ikki baravar, 1-navli terilar salmog'ining 3,6 foizga ko'pligi bilan izohlash mumkin. Albatta, qayd etilgan yuqori rentabellik ko'rsatkichlari tajriba otarlarida bajarilgan tadqiqot natijasi hisoblanib, bu ko'rsatkichlar o'ta yuqori ko'rinishi mumkin. Amaliyotda ma'lum darajada pastroq ko'rsatkichlar kuzatilishi mumkin, lekin umumiy tendensiya saqlanib qoladi, qoniqarli iqtisodiy samaraga erishiladi va bunda olmos rangbarangligiga ma'lum darajadagi ustunlikka ega bo'ladi.

8-jadval

Tadqiqot natijalarini iqtisodiy baholash

Ko'rsatkichlar	Olmos rangbarang likdagi qo'chqorlar bo'yicha	Kumushsimon rangbaranglikdagi qo'chqorlar bo'yicha
Jami baholangan qorako'l terilari, dona	48	59
SHundan, % Olmos	52,4±7,19	28,8±5,90
Kumushsimon rangbarangli	31,2±6,69	62,5±6,30
Tillasimon rangbarangli	14,6±5,10	8,7±3,67
Jami baholangan qorako'l terilari, dona	48	59
SHundan, %		
I-navli	91,7±3,98	88,1±4,22
II-navli	6,3±3,51	8,5±3,63
III-navli	2,0±2,02	3,4±2,36
Bir dona qorako'l teri tannarxi, so'm	61000,0	61000,0
Jami tannarx	2928000,0	3599000,0
Bir dona qorako'l terisini sotish bahosi, so'm	105000,0	96000,0
Jami olingan daromad, so'm	5040000,0	5664000,0
Rentabellik	72,1	57,4

XULOSALAR

1. Olmos va kumushsimon rangbarangliklaridagi qo'ylar va qo'zilar o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha bir-biridan sezilarli, statistik ishonchli darajada farqlanmaydi. Qo'zilar gul tiplari miqyosida olmos rangbarangligi bo'yicha

tugʻilganda 3,9-4,2 kg, 4,5 oylikda 24,03-26,15 kg, katta yoshli qoʻylar $41,9 \pm 0,37$ kg, qoʻchqorlar $61,2 \pm 0,07$ kg tirik vazn koʻrsatkichlari bilan harakterlanib, kumushsimon rangbarangligi boʻyicha bu koʻrsatkichlarning mutanosib ravishda 3,8-4,4; 25,0-26,7, $40,8 \pm 0,41$ va $60,3 \pm 0,64$ tashkil etgani, eksterer oʻlchamlari va tana tuzilish oʻlchamlari boʻyicha ham sezilarli ustunlik va ortda qolish holatlari kuzatilmadi.

2. Olmos rangbarangligidagi qoʻylarni gomogen juftlashda avlodlarda rangbaranglikning aʻlo ifodalanish darajasini $61,8 \pm 5,89$ foizga, oʻrta ifodalanish darajasini $29,4 \pm 5,52$ foizga yetkazish, yetarsiz ifodalanish darajasini sezilarli (8,8 foizgacha) tushirish imkoni yaratiladi. Maqsadli juftlash ishlarini olib borishning sur qoʻylarda muhim seleksion koʻrsatkich hisoblangan aʻlo rang tekisligi salohiyatining avlodlarda sezilarli yuqori darajada namoyon boʻlishini taminlaydi.

3. Olmos rangbarangligidagi ota–onalardan foydalanish, yaʼni ularni gomogen juftlash rangning keskin oʻtishiga ega avlodlar salmogʻini $58,8 \pm 5,97$ foizgacha yetkazish imkonini beradi.

4. Rangbaranglik boʻyicha turli variant juftlashlarda olingan avlodlar gullarning teri sathida uchrash chastotasi boʻyicha keng darajadagi geterozigotligi bilan xarakterlanadi. Maʼlum darajaga geterozigotlikning qisqarishi “olmos x olmos” va “kumushsimon x tillasimon” juftlash variantlarida kuzatiladi.

5. Qoʻylarni rangbaranglik boʻyicha juftlash olinadigan avlodlarning gul uzunligiga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi. Bunda gul uzunligining eng yuqori oʻrtacha koʻrsatkichi bilan “olmos x olmos” ($36,7 \pm 0,33$ mm) “kumushsimon x olmos”, yaʼni olmos rangbarangligidagi ota–onalar ishtirok etgan juftlash variantlaridan olingan avlodlar harakterlanib, ular boshqa variantlar koʻrsatkichlaridan statistik ishonchli ($P < 0,001$) ustunlik qiladi.

6. Olmos rangbarangligidagi qoʻylardan seleksiya jarayonida foydalanish rang koʻrsatkichlarining oʻzgaruvchanligini pasaytirib, ularning optimal va maksimal darajalarda namoyon boʻlishini kuchaytiradi.

7. Olmos rangbarangligidagi ota–onalardan seleksiya jarayonida foydalanish jun tolalarining ipaksimonlik va yaltiroqlik xususiyatlarini pasaytirmagan holda uning uzunligini optimal darajaga qisqartirishni taʼminlaydi.

8. “Olmos x olmos” juftlash variantida gullarning rasmi sezilarli darajada yaxshilanadi ($r = 0,61 \pm 0,17$; $P < 0,001$), yetarli darajada gullarning eni oʻrtalashadi ($r = 0,39 \pm 0,14$; $P < 0,05$), uzunligi ortadi ($r = 0,41 \pm 0,12$; $P < 0,001$) va gullar mustahkamlanadi ($r = 0,43 \pm 0,17$; $P < 0,005$), “olmos x kumushsimon” juftlash variantida esa bunday holat gullarning rasmi, eni jun-tola uzunligi, ipaksimonligi va yaltiroqligi boʻyicha kuzatiladi.

9. Olmos rangbarangligidagi ota–onalar genotipining rangbaranglik, rang ifodalanishi, rang tekisligi, rangning oʻtish keskinligi boʻyicha kuchliligini tadqiqot natijalaridan koʻrish mumkin. Buni ularning yuqori irsiylik koeffitsientlari (h^2 mutanosib ravishda 0,65; 0,59; 0,51 va 0,72; $P < 0,001$; 0,05) boʻyicha olingan natijalar isbotlaydi.

10. Olmos rangbarangligidagi qoʻylar genotiplaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlikka ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bunda kumushsimon rangbarangligiga

nisbatan 1 dona qorako'l terisini sotish bahosining 9-10 foizga, rentabellik darajasining esa 15,0 foizgacha ortishi kuzatiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 05/30.12.2019. Qx.75.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ КАРАКУЛЕВОДСТВА И ЭКОЛОГИИ ПУСТЫНЬ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
КАРАКУЛЕВОДСТВА И ЭКОЛОГИИ ПУСТЫНЬ**

ТУРАНОВ МИРЖАЛОЛ ХУСАН УГЛИ

**СРАВНИТЕЛЬНАЯ СЕЛЕКЦИОННО-ГЕНЕТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА
ПРОДУКТИВНОСТИ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ СУР АЛМАЗНОЙ И
СЕРЕБРИСТОЙ РАСЦВЕТOK**

**06.02.01 – Разведение, селекция, генетика и воспроизводство сельскохозяйственных
животных. Каракулеводство**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Самарканд – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2021.1.PhD/Qx724

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Научно-исследовательском институте каракулеводства и экологии пустынь.

Автореферат доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.uzkarakul.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Газиев Адхам

доктор сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Соатов Уткир Ражабович

доктор сельскохозяйственных наук, доцент

Турсунов Хайрулло Шарофиддинович

кандидат сельскохозяйственных наук,
старший научный сотрудник

Ведущая организация:

**Самаркандский государственный
университет ветеринарной медицины,
животноводства и биотехнологий**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 года в __ часов на заседании Научного совета PhD 05/30.12.2019 Qx.75.01 по присуждению ученой степени доктора философии при научно-исследовательском институте каракулеводства и экологии пустынь (Адрес: 140154, Самарканд, ул. М.Улугбека 47. Научно-исследовательский институт каракулеводства и экологии пустынь, тел: (99866)233-32-79, факс (998660 2333481; e-mail: uzkarakul30@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре научно-исследовательского института каракулеводства и экологии пустынь (зарегистрировано под номером № 221). Адрес: 140154, Самарканд, ул. М.Улугбека, 47. Административное здание института, 1-этаж, тел: (99866) 2333279; факс: (99866) 2333481

Автореферат диссертации разослан «__» ____ 2023 года
(реестр протокола рассылки № _ «__» _____ 2023 года)

Э.С.Шаптаков

Председатель научного совета по
присуждению учёной степени,
д.с-х.н., доцент

З.С.Кличев

Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёной степени,
д.ф.с-х.н. (PhD), старший научный
сотрудник

Д.Х.Холмирзаев

Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёной степени, д.с-х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Каракулеводческая отрасль, выступая важным звеном животноводства, имеет большое значение в обеспечении населения мясом, а также легкую промышленность шерстью и ценной смушковой продукцией. В настоящее время каракульская порода овец разводится в более чем 40 странах Азии, Африки, Европы и Америки³. Среди которых Намибия, Южно-Африканская Республика, Афганистан, Казахстан и Туркмения считаются самыми крупными странами, где разводятся каракульские овцы с ценным генотипом различных смушковых типов, окрасок и расцветок, использование которых считается актуальным.

Среди стран СНГ разведением каракульских овец занимаются в России, Украине, Таджикистане, Казахстане и Туркмении. В этих странах путем проведения селекционных работ по размножению высокопродуктивных типов своеобразных окрасок и расцветок созданы крупные ценные стада каракульских овец. Вместе с тем, уделяется особое внимание исследованиям в направлении эффективного использования ценного генотипа каракульских овец. В институте животноводства «Аскания-нова» Украины на основе скрещивания овец каракульской с романовской пород созданы ценный генотип каракульских овец продуцирующих 140-150 ягнят на 100 маток.

